

FANLARARO ALOQADORLIK (INTEGRATSIYA) ASOSIDA TALABALARNING  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Rashidova Dildora Mansur qizi**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14594471>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritish, ya'ni yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari, fanlararo aloqadorlik vositalarini kiritish orqali talabalar kompetentligini rivojlantirish, ularni kasbiy jihatdan mukammal tayyorlash haqida yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* Fanlararo aloqadorlik (integratsiya), talaba, vosita, kompetentlik, innovatsiya, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayoni.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda, yoshlarimizni o'qimishli bo'lib, o'zlari qiziqqan kasb egalari bo'lishiga O'zbekistonda barcha imkoniyatlar eshigi ochiqdir. Xususan, muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham ta'lim sohasini tubdan yaxshilashga, undagi oldindan qolgan eskilik sarqitlarini yo'qotishga bor kuch, g'ayratlari bilan harakat qilyaptilar.

Albatta, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev fikri bilan aytadigan bo'lsak, "Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir".

Shu sababli ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashi uchun eng qulay sharoitlar yaratish izchil davom etmoqda. Yaqin vaqtlarda ta'lim sohasiga fanlararo aloqadorlik degan tushuncha kirib keldi.

"Fanlararo aloqadorlik" atamasi, turli fanlar o'rtasidagi bog'lanish yoki o'zaro ta'sirni ifodalaydi. Bu soha bir nechta ilmiy yo'nalishlar va bilim sohalari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni, bir-birini to'ldirishini yoki integratsiyasini tushuntiradi.

Misol uchun, biologiya va kimyo, fizika va matematika, iqtisodiyot va sotsiologiya kabi fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ular birgalikda yangi ilmiy yondashuvlarni yaratishga imkon beradi.

Bu, zamonaviy ilmiy izlanishlarda ko'pincha muhim rol o'ynaydi, chunki murakkab masalalar faqat bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fanlar nuqtai nazaridan ham hal qilinishi kerak.

**1. Ko'p yo'nalishli yondashuvlar:**  
Biror masalani turli fanlar nuqtai  
nazaridan o'rganish.

## Fanlararo aloqadorlikning bir nechta muhim jihatlari:

**2. Integratsiya:** Fanlarning  
o'zaro ta'sirini hisobga  
olgan holda yagona ilmiy  
yondashuvni yaratish.

**3. Innovatsiyalar:** Fanlararo  
aloqalar yangi g'oyalar va  
innovatsion yondashuvlarni  
keltirib chiqarishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) asosida talabalarning kompetentligini rivojlantirish — bu ta'lim tizimida bir nechta fanlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va talabalarni bir vaqtning o'zida bir nechta sohalarida bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirishni ifodalaydi.

Bunday yondoshuv talabalarga keng qamrovli, tizimli va amaliy bilimlar berish imkonini yaratadi. Bu jarayonning maqsadi nafaqat fanlar bo'yicha alohida bilimlarni shakllantirish, balki ularni bir-biri bilan bog'lab, real hayotdagi masalalarni hal etishda qo'llanadigan umumiy ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini tahlil qilish, shuningdek, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlikning alohida komponentlarini talab qiladi. Kompetensiya, kompetentlik atmalari nima o'zi? “Competentia” lotincha so'zdan olingan bo'lib, “tajribaga ega bo'lgan kishi”, “yaxshi biladigan inson” degan ma'noni bildiradi.

Ya'ni kompetentli shaxs, pedagog, bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lib, undan amalda mohirona foydalanadi. Bugungi kunda talabalarimizda fanlararo aloqadorlik kompetentligi hali to'laqonli shakllanmagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar amaliyotga chiqqanida dars jarayonida o'quvchilarga fanlarni bir-biriga bog'lab tushintirib bera olmagan. Masalan: fizika-kimyomatematika fanlari, yoki biologiya-geografiya-kimyomatematika fanlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, birini bilmasangiz, fanni o'quvchiga to'liq yetkazib bera olmaysiz. Talabalarda esa shu fanlar orasidan qaysisidadir oqsoq tomonlari kuzatilgan.

Shunday ekan bu sohada ilmiy ishlar olib borish, metodologiyalar shakllantirish bugungi kunning dolzarb mavzularidandir.

Yanvar, 2025-Yil

Umuman olganda, fanlararo aloqadorlik talabalarga keng qamrovli va tizimli yondashuvni taqdim etib, ularning umumiy kompetentliklarini oshiradi. Bu, o'z navbatida, talabalarning real dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Integratsiya o'qituvchilar va talabalarni faol birgalikdagi ijodiy jarayonga jalb qilish imkonini beradi. Bu juda keng o'ylangan ta'lim va tarbiya jarayoni bo'lib, axborotni tushunish va uni tahlil qilishga o'rgatib, talabalarda dunyodagi barcha jarayonlarning bir butun sifatida o'zaro ta'siri haqidagi tushuncha va g'oyalarni shakllantiradi.

#### REFERENCES

1. Raximov Z. T. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi, avtorefeat, (DSc),2021.
2. Yusupova, N. V. (2020). Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda fanlararo bog'lanishlar muammolari. Jismoniy madaniyat va boshlang'ich talim samaradorligini oshirish istiqbollari, 1(1), 402-407.
3. Zokirova.D.N. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli. //Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2-son, 2023-yil
4. Гусарова Е.Н. “Современные подходы профессионального педагогического образования, направленные на развитие творческого потенциала”, ИССН 2075-9908 Историческая и социально-образовательная мысль. 2012. № 1 (11).

MODERN SCIENCE  
& RESEARCH